

MAJBURIY TIBBIY KO'RIK DAN O'TISH KIMLARGA SHART VA NIMA UCHUN?

Rustamova Shahnoza Sheramat qizi

Avvalo vaqti vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tib turish barcha uchun zarur hisoblanadi. Konstitutsiyamizda ham har bir inson sog'ligini saqlashi va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi va bular davlat hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Ammo bizning xalqimiz kasal bo'lib qolishmasa tibbiy ko'riklarga bormaydilar va bu albatta noto'g'ri. Shifokorlarning tafsiyasiga ko'ra har bir inson har olti oyda tibbiy ko'rikdan o'tib turishi kerak ekan. Bizning qonunchiligimizda sog'lom bo'lsa ham doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tishi majburiy bo'lgan kasb egalari ham mavjud. Oddiy insonlarga tibbiy ko'rikdan o'tish majburiy emas ammo shunday kasb egalari borki ular har doim tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari majburiy hisoblanadi. Quyidagi shaxslar har doim tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari shart:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;
- umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- sudyalari;
- transport vositalari harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lgan shaxslar;
- umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalarga ta'lim berish bilan band bolgan pedagogika xodimlari;
- zararli ishda ishlaydigan ishchilar;
- noqulay mehnat sharoitida ishlaydigan ishchilar;
- tungi ishlarda ishlaydigan ishchilar;
- oziq-ovqat sanoatida, savdoda va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan ishchilar;

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat

kodeksida belgilab qo'yilgan. Shu joyda bitta savol paydo bo'ladi ushbu shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tishlari nima uchun majburiy? Bu savollarga javob berib o'tadigan bo'lsak masalan ayrim davlat organlari xodimlari ya'ni sudyalari har yili tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari majburiy bu qonun bilan belgilangan.

Chunki ular sud jarayonlari paytida turli xil voqealarga guvoh bo'ladilar. Masalan: birorta jinoyatchining ishini olib borayotgan sudya albatta bu ishning barcha ma'lumotlaridan xabardor bo'ladi bu jinoyat ishi qanchalik og'irliqli, qo'rqinchli ekanligi albatta sudyalari bulardan qo'rqmaydilar ammo doimiy asabiylik ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sudyalarning biror ishni olib borayotgan vaqtlarida ruhiy holatining yomonligi noto'g'ri hukm chiqarib qo'yishlariga olib kelishi mumkin va bu bir insonning hayotini barbod qilish demakdir.



Shu sababdan ham sudyalari har yili tibbiy ko'rikda o'tib turishlari shart. O'qituvchilarimiz ular bizning kelajagimiz hisoblangan yosh avlodga ta'lim tarbiya berishadi va ularning sifatli ta'lim olishlariga ma'sul hisoblanishadi. Ular sog'lom bo'lsalargina o'quvchilariga sog'lom ta'lim tarbiya bera oladilar va kelajakda yaxshi bir kasbning egasi bo'la oladilar. Transport vositasi harakati bilan shug'illanuvchilar ya'ni haydovchilar ular doimo safarda yo'lda bo'lishadi va o'zlarining hamda yo'lovchilarning hayoti uchun mas'ul hisoblanishadi. Noqulay

mehnat sharoitida va zararli ishlarda ishlovchi xodimlar ularning ishlari og'ir mehnat sharoitlari yomonligini hisobga olgan holda ularni doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turiladi. Agarda ular tibbiy ko'riklardan vaqtida o'tkazib turilmasa ularning sog'ligida muammolar paydo bo'lishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslar ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar ular voyaga yetgunlariga qadar tibbiy ko'riklarda o'tib turishlari zarur. Bilamizki barchamiz o'smirlik davrimizda katta hayotga o'tish davrida bo'lamiz va bu paytda turli xil yomon yo'llarga kirib qolishan va buning natijasida o'z sog'liqlariga zarar yetkazib qo'yishlari mumkin. Va davlat buni bizning keajagimiz hisoblangan yosh avlodning hayotiga befarq emas shu sababdan ham o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tib turishlarini qonunlarimizda majburiy qilib belgilab qo'ygan. Yoshi katta insonlar ya'ni keksalarning tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari shart ekanligi ham qonunlarimizda belgilab qo'yilgan buning sabablaridan biri yoshi katta insonlarda organizimda harakatlar faoliyatining susayishi holatlari hamda qon bosimining oshishi, qandli diabet kabi kasalliklar bilan og'rib turish ko'p uchraydi va ular doimiy ravishda tibbiy ko'riklardan o'tib turishlari shart hisoblanadi. Tungi ishlarda ishlovchi shaxslar ular ham albatta doimiy ko'riklardan o'tib turishlar shart hisoblanadi. Chunki ular tunda ya'ni dam olish vaqtida ish bilan band bo'lishadi bular ham inson sog'ligi uchun ma'lum darajada zarar yetkazadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ular albatta doimiy ravishda shifokorlar nazorati ostida bo'lishlari shart va majburiydir. Ular barcha insonlar kabi hayot kechirishlari, o'zlarida boshqalarga nisbatan kamchilik sezmasliklari uchun barcha shart sharoitlar yaratib beriladi. Qonunchiligimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishlari qat'iy belgilab qo'yilgan va ularning huquqlari qonun bilan himoyalangan. Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi jamiyatimizning sog'lom hayot tarzi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning Konstitutsiya va qonunlarimizda yuqorida ta'kidlab o'tilgan shaxslarning hamda har bir insonning salomatligi va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilib berilishi belgilab qo'yilgan.